



ORGANIK VA ANORGANIK KIMYONI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

¹Z.D.Abralova

TDPU, Umumiy pedagogika kafedrasida o'qituvchisi

²Z.E.Umarova

TDPU, Tabiiy fanlar fakulteti 2-bosqich talabasi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7972840>

ARTICLE INFO

Received: 18th May 2023

Accepted: 25th May 2023

Online: 26th May 2023

KEY WORDS

Zamonaviy axborot texnologiyalari, interfaol metodlar, interfaol usul, "Blum taksonomiyasi".

ABSTRACT

Ushbu maqolada anorganik va organik kimyoni o'qitishda interfaol metodlarning ahamiyati va yosh avlodga kimyo fanini tushuntirishda qo'llaniladigan o'rni haqida ma'lumot beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustda qabul qilingan PQ-4805 sonli qaroriga ko'ra mamlakatimizda kimyo va biologiya fanlarini rivojlantirish, ushbu yo'nalishlarda ta'lim sifati va ilm-fan natijadorligini oshirish vazifalari belgilangan. Zero, o'g'il-qizlarimizni kimyo va biologiya fanlari bo'yicha chuqur o'qitish hududlarda yangi-yangi ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish, yuqori qiymat yaratadigan farmatsevtika, neft, gaz, kimyo, tog'-kon, oziq-ovqat sanoati tarmoqlarini jadal rivojlantirishga turtki beradi hamda xalqimiz turmush sharoiti va daromadlarini oshirishga puxta zamin hozirlaydi.

Anorganik va organik kimyoning bugungi kunda rivojlanish sur'atini ko'rar ekanimiz hozirgi yosh avlodga ushbu fanning mohiyatini interfaol metodlar orqali tushuntirish eng samarali yo'l ekanligini ta'kidlab o'tmog'imiz joizdir. Shu sababli ham anorganik va organik kimyo fanini o'qitishda interfaol usullar orqali fanni yoritib berish metodik g'oyalar bilan uzviy bog'liq bo'lib, yosh avlod va o'quvchi yoshlarning mazkur fanga qiziqishini yanada oshirishga yordam beradi. Yosh avlod va o'quvchi yoshlarni o'qitishda interfaol usullar orqali o'qitish natijasida yoshlarning fanga qiziqishini, yoshlarning ijodkorlik darajasini, fanni o'zlashtirish ko'rsatkichini, mustaqil tadqiqotlarga izlanuvchanligini yanada oshiradi.

"Interfaol" atamasi birinchi bo'lib pedagogika faniga nemis tadqiqotchisi Xans Frits tomonidan kiritilgan. Interfaol metod – ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega. Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va



tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Barcha fan o'qituvchilari dars mashg'ulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar. Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi. Bu masalada amerikalik psixolog va pedagog B.Blum bilish va emotsional sohalaridagi pedagogik maqsadlarning taksonomiyasini yaratgan. Uni Blum taksonomiyasi deb nomlanadi. (taksonomiya-borliqning murakkab tuzilgan sohalarini tasniflash va sistemalashtirish nazariyasi). U tafakkurni bilish qobiliyatlari rivojlanishiga muvofiq ravishdagi oltita darajaga ajratdi.

Unga ko'ra tafakkurning rivojlanishi bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, umumlashtirish, baholash darajalarida bo'ladi. Shu har bir daraja quyidagi belgilar hamda har bir darajaga muvofiq fe'llar namunalari bilan ham ifodalanadi, jumladan, bilish-dastlabki tafakkur darajasi bo'lib, bunda o'quvchi atamalarni ayta oladi, aniq qoidalar, tushunchalar, faktlar va shu kabilarni biladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: qaytara bilish, mustahkamlay olish, axborotni etkaza olish, aytib bera olish, yozish, ifodalay olish, farqlash, taniy olish, gapirib berish, takrorlash. Tushunish darajasidagi tafakkurga ega bo'lganda esa, o'quvchi faktlar, qoidalar, sxema, jadvallarni tushunadi. Mavjud ma'lumotlar asosida kelgusi oqibatlarni taxminiy tafsiflay oladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: asoslash, almashtirish, yaqqollashtirish, belgilash, tushuntirish, tarjima qilish, qayta tuzish, yoritib berish, sharhlash, oydinlashtirish. Qo'llash darajasidagi tafakkurda o'quvchi olgan bilimlaridan faqat an'anaviy emas, no'anaviy holatlarda ham foydalana oladi va ularni to'g'ri qo'llaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq ish namunalari: joriy qilish, hisoblab chiqish, namoyish qilish, foydalanish, o'rgatish, aniqlash, amalga oshirish, hisob-kitob qilish, tatbiq qilish, hal etish. Tahlil darajasidagi tafakkurda o'quvchi yaxlitning qismlarini va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni ajrata oladi, fikrlash mantiqidagi xatolarni ko'radi, faktlar va oqibatlar orasidagi farqlarni ajratadi, ma'lumotlarning ahamiyatini baholaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq ish namunalari: keltirib chiqarish, ajratish, tabaqalashtirish, tasniflash, taxmin qilish, bashorat qilish, yoyish, taqsimlash, tekshirish, guruhlash. Umumlashtirish darajasidagi tafakkurda o'quvchi ijodiy ish bajaradi, biror tajriba o'tkazish rejasini tuzadi, bir nechta sohalaridagi bilimlardan foydalanadi. Ma'lumotni yangilik yaratish uchun ijodiy qayta ishlaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq ish namunalari: yangilik yaratish, umumlashtirish, birlashtirish, rejalashtirish, ishlab chiqish, tizimlashtirish, kombinastiyalashtirish, yaratish, tuzish, loyihalash.

Baholash darajasidagi tafakkurda o'quvchi mezonlarni ajrata oladi, ularga rioya qila oladi, mezonlarning xilma-xilligini ko'radi, xulosalarning mavjud ma'lumotlarga mosligini baholaydi, faktlar va baholovchi fikrlar orasidagi farqlarni ajratadi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq ish namunalari: tashxislash, isbotlash, o'lchash, nazorat qilish, asoslash, ma'qullash, baholash, tekshirish, solishtirish, qiyoslash.

Interfaol usullar ko'p turli bo'lib, ularning hammasi ham har qanday progressiv usullar kabi eng avvalo, o'qituvchidan mashg'ulot oldidan katta tayyorgarlik ko'rishni talab qiladi. "Galereya" metodi-kichik guruhlarda birdaniga bir nechta masalani muhokama qilish imkonini beradi. O'qituvchi har bir guruhga muammo yoki masalani beradi. Har bir guruh o'z masalasi ustida ishlaydi, g'oyalar yozilgan katta varaqlar qo'shni guruhga uzatiladi, har bir



guruhning varaqlari almashadi, qo'shni guruh masalasi yechimi bo'yicha o'z g'oyalarini yozadi, shu tariqa qog'ozlar almashadi va guruh o'zining dastlabki masalasiga qaytishi bilan tugallanadi. Har bir guruh navbat bilan o'zlarining qog'oz varaqlarida yig'ilgan natijalarni tushuntirish va sharhlar bilan taqdim etadi.

Interfaol metodlar yordamida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish hamda innovatsiya jarayonlari, funksiyalari, rivojlanish qonuniyatlari, mexanizmlari va texnologiyalari, boshqarish tamoyillarining pedagogik asoslarini o'rganish o'quv-tarbiya jarayonini zamonaviy pedagogika fani yutuqlari asosida jahon standartlari darajasida tashkil etish imkonini beradi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustda qabul qilingan PQ-4805 sonli qarori.
2. G.A.Ixtiyarova, D.J.Bekchanov, M.Sh.Ahadov // "Kimyoni o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish"// T.-2020.
3. N. O.Temirov, Z. M.Mirzaliyev, D. B. Soyibova //The amplification of outlooks in students by solving tasks related to nuclear reaction // pp 40– 42.